



## ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> October 2022

Accepted: 05<sup>th</sup> October 2022

Online: 17<sup>th</sup> October 2022

## KEY WORDS

*Sayyid Qosimiy, "Nasoyim ul-muhabbat", Farkat, hazrat Xoja, Mavlono Qosim.*

## SAYYID QOSIMIY SHAXSIYATIGA OYDINLIK

Norboboyeva Maftuna Abdusalom qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7214421>

## ABSTRACT

*Mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Nasoyim ul muhabbat" asarida Mavlono Qosim ismli shaxsni shoir Sayyid Qosimiyga yaqinligi haqidagi fikrlar o'rin olgan.*

Sayyid Qosimiy shaxsiyati bilan bog'liq ishlar deyarli kam. Faqatgina shoirning "Masnaviyalar majmuasi"dan u haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'lish mumkin. "Haqiqatnoma" dostonining xotimasida Sayyid Qosimiy asarni yozib tugatgan yilini (hijriy 863 – milodiy 1458-1459 yillar) qayd etganini e'tiborga olsak, u XV asr o'rtalarida Movarounnahr yoki Xurosonda yashab, ijod etgan deb taxmin qilish mumkin.

Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida 461- raqam ostida Mavlono Qosim ismli shaxs haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi. "Nasoyim ul-muhabbat"da Navoiy yozadi: "461. Mavlono Qosim q. s. Hazrat Xoja Ubaydullohning kibar as'hobidindur. Anjumanda hamdam va xilvatda mahram. Asli Farkat navohisidindur. Ellik yilg'a yaqin ul Hazrat xizmatin andoq qildikim, hargiz alarning muborak xotirlarig'a andin g'ayri muhabbat va iltifot voqe' bo'lmadi va Mavlono Qosimni salotin xizmatig'a ba'zi arbobi hojot muhimmoti uchun yiborur erdilar va salotin istiqbol qilib, ta'zim bila o'lturtub, har ne

alar ul Hazratdin risolat qilsalar erdi, minnat tutub, hamul nav' e'zoz bila uzoturlar erdi va Mavlono ul nav' foniy va maqbul kishi erdikim, oni ko'rgon kishi giriftor bo'lur erdi. Ul jumladin, biri bu haqirdurkim, alarni ul Hazrat musulmonlar maslahati uchun Movarounnahrin Xurosong'a risolat rasmi bila yiborib erdilar va bu faqir hamul kelganlarida ko'rub, alarning volih bo'lib erdi. Ul ishni yasab, azim e'zoz va ikromlar topib bordilar. Alarning yoshi yetmishdin o'tub erdi. Olamdin o'tganlari bu nav' erdikim, Hazrat Xojaning azim za'flari bor erdi va so'l yonlarida bir sanchiq emishki, barcha atibbo va xalq hayotlaridin tama' munqati' qilg'an ermishlar. Mavlono ul holni ko'rub, andoqki Xojalar xonavodasi ahli ba'zi dilxoh elning marazining yuki ostig'a kirib ul yukni ko'torib, mariz sihat topar va ul kishi ul marazni tortar. Mavlono Qosim dog'i Xojaning boshig'a evrulub, ul marazni qabul qilib, og'riq yuki ostiga kirib, ul yukni ko'tarib, Hazrat Xoja hamul vaqtda sihat topib, Mavlono'ning hamul so'l yonig'a



hamul sanchig' turub, bir hafta hamul marazg'a giriftor bo'lub, jonlarin Xojalarig'a fido qildilar...

Ammo biz Mavlono Qosimni bag'oyat vorasta kishi topibbiz. Haq s. t. bu tabaqaning ahli irshodidin toliblarg'a barchani o'z fazlu karami bila daryoyi rahmatig'a g'ariq va o'z bavoriqi qurbig'a hariq qilg'ay. Omin, yo Rabbal-olamin.»

Biz uni quyidagicha tabdil qildik: "Hazrat Xoja Ubaydullohning ulug' as'hoblaridandir. Majlislarda yonini oladigan va hilvatda mahramlaridandir. Asli Farkatlikdir (Parkent bo'lishi mumkin). Ellik yilga yaqin Hazrat xizmatini qildi, lekin aslo ularning muborak yodlariga yomonlik qilish kelmadi. Mavlono Qosimni salotin xizmatiga ba'zi xizmatlar uchun yuborar edilar va salotin istiqbol bilan o'tirar edi, har doim Hazratdan elchilik qilsalar e'zoz bilan kuzatar edilar. Mavolononon foni va maqbul kishi edilarki, ularni ko'rgan kishi giriftor bo'lar edi. Jumladan bir kun Hazrat musulmonlar maslahati uchun Movarounnahrdan Xurosonga elchilik rasmiyati bilan yuborgan edilar. Bu faqir shu dam kelganlarida unga maftun bo'ldilar. U ishni bitirib katta e'zoz ikrom topib qaytdilar. Ularning Yoshi yetmishdan oshib vafot etdi. Olamdan o'tganlari ham shunday bo'ldiki, Hazrat Xojaning katta kuchsizliklari bor edi va chap yonlarida bir sanchiq bo'lib, barcha tabiblar va xalq hayotining tugayotganligi aytishgan edi. Mavlono bu holni ko'rib, xojalar sulolasi ahlining kasali yuki ostga kirib, u yukni ko'tardi, kasallik tuzaldi. Mavlono Qosim Xojaning boshidan aylanib, u kasalni qabul qildi, og'riq yuki ostiga kirib uni qabul qildi, Hazrat Xoja bu vaqtda tuzaldi. Mavlonononon shu dam chap yonlariga sanchig' turib, bir hafta shu kasalga giriftor bo'ldi va jonlarini Xojaga fido qildilar. Bir kun bu haqir Hazrat

Xoja xizmatida edim va Xojai buvrugvor sohiblaridan (dindorlardan) gapirdilar. Haqir u Hazratga sohiblardan tariqat yo'liga kirib, unga muvofiq suluk qilib, faqr yo'lida martaba hosil qilgan va fano rasmida yorug'lik topib, manmanlik zulmatidan xalos bo'lgan sizning muborak yodingizga zohir insonlar kimlar deb savol berdim. Ular dedilarki, barcha bu tariqda yaxshi suluk va ravishlar qilgan. Ammo biz Mavlono Qosimni bag'oyat kutilgan kishi deb topdik. Haq s.t. bu tabaqaning ahli irshodida toliblarga barchani o'z fazlu karami bilan daryoyi rahmatiga g'ariq va o'z yashin qurbiga hariq qilgay. Omin, yo Rabbal-olamin".

Tabdildan ayon bo'ladiki, Parkentlik Sayyid Qosimiy o'z asarlari bilan ustoz Xoja Ahrorning tavsiyasi bilan salotin xizmatiga borganligi ayni shaxs bilan bir kishi ekanidan dalolatdir. Ularning naqshbandiya tariqati vakili ekanligi va o'z asari bilan Sulton Abu Sa'idga pand nasihat qilishi hikoyat janrining didaktika yo'nalishidagi ustun janrlardan ekanini ko'rsatadi. Sayyid Qosimiy Alisher Navoiy ham ko'rishga muyassar bo'lgan. Bu Xoja Ahror q.s. uni Movarounnahrdan Xurosonga musulmonlarga va'z nasihat aytish uchun yuborganida sodir bo'lgan. Navoiy uning volavu shaydosi bo'lganini hisobga olsak, Mavlono Qosimiy notiqlikga ustaomon, o'z nutqi bilan ko'pchilikni o'ziga shaydo qila olgan. Bu esa uning salaflar ijodidan ko'plab hikoyatlarni bilganidan va o'rni kelganida foydalana olganidan dalolatdir. Abdurahmon Jomiy esa bu shaxsni maqtagan, Navoiyning savoliga javoban uni Hazrat Xoja Ahrorning eng yetuk shogirdi ekanini e'tirof etgan. Bu ham uning so'z san'atida yetuk shaxs bo'lgani tufaylidir, degan xulosaga olib keladi. Chunki sultonlar oldida hamma ham o'z fikrini dadil ayta



olmagan, musulmonlar foydasi uchun nasihatlar berolmagan. Sayyid Qosimiy esa kuchli quvvai hofiza hamda ko'plab hikoyatlarni bilishi orqali ustozining bu topshiriqlarini haddi a'losiga yetkazib bajara olgan. Parchadagi yana bir ma'lumot muhim ahamiyatga ega. U ham bo'lsa Sayyid Qosimiyning o'limi haqida Navoiyning ma'lumotidir: "Mavlononing hamul so'lonig'a hamul sanchig' turub, bir hafta hamul marazg'a giriftor bo'lub, jonlarin Xojalarig'a fido qildilar." Demak, Sayyid Qosimiy o'z ustozini Xoja Ahror Valiyga o'z jonlarini fido qilgan, uning kasalini o'ziga tilab olgan. Faqru fano yo'lida o'z jonini ayamagan Sayyid Qosimiy hayotining sirliligi ham aslida shundan. U hech vaqt o'zini ko'z ko'z qilishga intilmagan, "men" deb emas, balki "ustozim" deya harakat qilgani sabab ham adabiyotimiz tarixida

faqir, foniyyash kimsa kabi elas-elas eslanadi.

"Ilohiynoma"ning xotima qismidagi va "Majma' ul-axbor"dagi ma'lumotlardan Qosimiy ilgari shoh va amaldorlar xizmatida bo'lganligi ma'lum bo'ladi. Keyinchalik noma'lum sabablarga ko'ra, saroydan chetlashtiriladi. Oqibatda shoirning turmushi og'irlashgan. Bu to'g'rida Abu Said Mirzoga bag'ishlangan madhiyasida yozgan. Bundan tashqari shoir ushbu dostonni yosilish sababi haqida keltirgan bobida Xaydar Xorazmiydan ilhomlanib ushbu asarni yozganligini quyidagicha bayon etadi:

Xaydar agar berdisa so'z dodini,

Jumla jahon aylar oning yodini.

"Mahzani asrora" ayitdi javob,

Sochti maoniy durini chun sahob.

"Gulshani roz" dostoni ham Abu Said Mirzo tasarrufidagi bir shaharning hokimi Jaloliddin Sayyid Mazidga bag'ishlangan.

## References:

1. Sayyid Qosimiy. Masnaviylar majmuasi, Fan, 1992.
2. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. -Toshkent : G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.
3. Nasimxon Rahmonov. O'zbek adabiy tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). -Toshkent: Sano-standart, 2016